

“YONG‘IN XAVFSIZLIGI OYLIGI”**D. Amangeldiev**

QR FVB bo‘linma boshlig‘i mayor bo‘linma katta inspector.

O. Olimboyev

Leytenant.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14418754>

Annotatsiya. Bu maqolada aholining yong‘in xavsizligi masalalari shuning bilan birga shaxsiy xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, baxtsiz hodisalarning oldini olish boyicha praflaktika ishlari haqida sóz etilgan.

Kalit sózlar: Yong‘in xavfsizligi, obyekt, uy-joy fondini, favqulodda vaziyatlar

“FIRE SAFETY MONTH”

Abstract. This article discusses the issues of fire safety of the population, as well as the formation of a culture of personal safety, preventive work to prevent accidents.

Keywords: Fire safety, facility, housing stock, emergency situations

«МЕСЯЦ ПОЖАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ»

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы пожарной безопасности населения, а также формирования культуры личной безопасности, предотвращения несчастных случаев.

Ключевые слова: Пожарная безопасность, объект, жилой фонд, чрезвычайные ситуации.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2024-yil 15-noyabr-15-dekabr kunlari davomida respublikada “Yong‘in xavfsizligi oyligi”ni o‘tkazish bo‘yicha tegishli buyrug‘iga asosan 2024-yil 15-noyabrdan boshlab 15-dekabrga qadar “Yong‘in xavfsizligi oyligi” o‘tkazilmoqda. “Yong‘in xavfsizligi oyligi”ni o‘tkazish davrida asosiy e’tiborni, birinchi galda:

-aholining yong‘in xavfsizligi masalalarida bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda ularni shaxsiy xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga;

-iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari hamda uy-joy fondini yong‘in xavfsizligi talablariga muvofiq holda keltirishga qaratilishiga alohida urg‘u berildi. Shu o‘rinda davom etayorgan kuz-qish mavsumidagi tadbirlarni ham birgalikda uzviy olib borilishi nazorat qilib bolishi hamda 2024-yil 15-noyabrdan boshlab 15-dekabrga qadar “Yong‘in xavfsizligi oyligi” davomida bu borada olib borilayotgan ishlar yanada kuchatirilib qattiq nazotga olingani ham bejiz emas albatda.

Aziz fuqarolar sizlardan “Yong‘in xavfsizligi oyligi”da faol qatnashishingizni va yong‘in xavsizligi qoidalariga qat’iy rioya qilishingizni so‘rab qolamiz. Bu olib borilayotgan ishlardan ko‘zda tutilgan bosh maqsadimiz sizlarni hayotingizni va mol-mulkingizni favqulodda vaziyatlardan va yong‘inlardan asrashdan iborat ekanini yanabir bor takidlab o‘tmoqchimiz. Zero hozirgi kunimizdagi eng bos maqsadimiz ham aslida shundan iborat yurt boshimiz aytganidek “Inson qadr-qimmati-eng oliy qadriyat”

Kuz-qish mavsumi bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan aholi orasida tabiiy gazdan noto‘g‘ri foydalanish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar noxush oqibatlarga olib kelmoqda. Soha mutaxassislari tomonidan ushbu hodisalarning kelib chiqish sabablari o‘rganib chiqilganda, xonadonlarning isitish tizimlariga, tabiiy gaz tarmog‘iga ularishida meyor talablari va ehtiyyot choralar ko‘rilmasligi, tabiiy gaz oqimining bexosdan uzilib qolishi, aholini gaz uskunalaridan foydalanish qoidalariga rioya etmaganligi, bu borada malakaga ega emasligi natijasida, aholning, ayniqsa yosh bolalarning tabiiy va is gazidan zahrlanishi hodisalari ro‘y berayotganligi kuzatilmoqda. Turmushda foydalanib kelinayotgan yoqilg‘i mahsulotlari ichida tabiiy gaz (metan, propan) sizib chiqishi va havo bilan aralashma hosil qilib, portlash xavfliligi bilan ajralib turadi.

Gaz oqimining to‘satdan (avariyaviy) uzilishi va qayta ularishi natijasida, xona ichida gaz to‘planishi, yonib turgan gaz anjomlarini qarovsiz qoldirish, isitish asbob-anjomlariga gazni ulashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik, gaz quvurlariga o‘zboshimchalik bilan ularish oqibatida havo-gaz aralashmasini portlashi hamda yong‘in sodir bo‘lishi mumkin. Shuningdek, aholi tomonidan xavfsizlik talablariga javob bermaydigan qo‘lbola, nostandard gaz jihozlaridan foydalanish, gaz tarmoqlariga rezina shlang orqali ularish, nosoz holatdagi dudburonlardan hamda xonodon ichida ochiq olovdan isitish maqsadida foydalanish holatlarining uchrab turishi fuqarolarining is gazidan zahrlanishiga hamda havo-gaz aralashmasini chaqnashi natijasida jabrlanishi, hattoki halok bo‘lishiga olib keladi.

Favqulodda vaziyatlar sabablarini tahlil natijalari 90% hollarda inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, bunda kasbiy tayyorgarlik darajasining pastligi, mas’uliyatsizlik va favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni yetishmasligi sabab bo‘ladi degan xulosa qilish imkonini beradi.

Kuz-qish mavsumi bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar insoniyat hayotiga, sog‘lig‘i va faoliyatiga tahdid soladi. Shu boisdan barcha aholi qatlamlarini favqulodda vaziyatlarning sodir bo‘lishini oldini olish, ularni oldindan bashorat qilish, himoyalanishga tayyorgarlik ko‘rish, aholini evakuatsiya qilish kabi bilimlar tizimi bilan qurollantirish davr ehtiyojiga aylanmoqda.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf qilish ishlari bo'yicha tajribalar shuni ko'rsatadiki, agar qutqaruvchlar va rahbarlar yuqori professional darajada harakat qilishsa hamda aholining barcha toifalari favqulodda vaziyatlarda harakat qilish ko'nikmalariga ega bo'lsa, qurbanlar va jabrlanuvchilar soni kamayashi va moddiy yo'qotishlar ancha past bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabr kundagi 754-sonli "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorining 4-bandida hayotiy faoliyat xavfsizligi va fuqaro muhofaza yo'nalishlaridagi o'quv dasturlarini ta'lim yo'nalishlari uchun zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va ta'lim jarayoniga joriy etish orqali aholini favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga tayyorlanganlik darajasini oshirish talab etiladi.

Mutaxassislar malakasini va aholini muhofazalanishga doir bilimlarini oshirish favqulodda vaziyatlardan yetishi mumkin bo'lgan zarar va yo'qotishlarni kamaytirish uchun ustuvor zaxira vazifasini bajaradi. Favqulodda vaziyatlar sharoitida qutqarish usullariga oid bilim va ko'nikmalarni egallash har bir inson uchun zarur, lekin, afsuski mehnatga layoqatli aholining katta qismi kundalik jarayonda hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash qoidalari va usullariga rioya etish madaniyatiga o'rgatishga jalb etilmaydi, natijada muayyan vaziyatlarda harakat qila olmaydi.

Favqulodda vaziyatlarga doir mavzular bo'yicha axborot texnologiyalarini keng qamrovli qo'llanilishi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining oliy va o'rta ta'lim muassasalari, o'quv yurtlari va hududiy "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" o'quv markazlari orqali amalga oshiriladi.

An'anaviy ta'limda inson hayotida odatda xotirasining faqat kichik bir qismidan foydalanadi.

Inson xotirasida saqlash quyidagicha:

- o'qilgan axborotning 15% gacha;
- eshitilgan axborotning 25% gacha;
- eshitilgan va ko'rilgan axborotning 55% gacha;
- agar u interfaol o'quv jarayonida qatnashsa yanada ko'proq ko'rsatkichga erishiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda 15-noyabrdan boshlab 15-dekabrga qadar "Yong'in xavfsizligi oyligi" davomida aholi orasida Favquladda vaziyatlar vazirligi hodimlari tomonidan Respublikani barcha hududlarida keng ko'lamlı targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Shularda qisqacha qilib aytadigan bo‘lsak aholi gavjum bo‘ladigan joylarda radio eshitrishlar hamda videoroliklar, turli hildagi tarqatma eslatma materiallari, bukletlar, ko‘rgazmali plakatlar tayyolanib fuqarolarimiz etiboriga taqdim etilimoqda.

Shu bilan birgalikda aholi orasida uyma-uy yurib is gazidan zaharlanishnni oldin olish hamda favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanish va yong‘in xavfsizligi qoidalariga amal qilish haqida tushuntish ishlarini ham olib borilyapti. Qadirli fuqarolar sizlardan yana bir bor o‘zlarizni va yaqinlaringizni hayoti va sog‘likiga etiborli bo‘lishga hamda 2024-yil 15-noyabrdan boshlab 15-dekabrga qadar “Yong‘in xavfsizligi oyligi”da faol qatnashishni so‘raymiz.

REFERENCES

1. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktabrdagi 649-sen qaroriga ILOVA
2. O‘z.R. “Yong‘in xavfsizligi” to‘g‘risidagi qonuni. T.: - 2009
3. Yuldashev O.R, G‘ulomova G.M., Raxmatova D.M. Yong‘in xavfsizligi asoslari. Amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun uslubiy qo‘llanma – T.:, TDTU, 2015 - 75 b.
4. Гуломова Г.М., Нарзиев Ш.М. Методическое руководство для проведения лабораторных работ по предмету Основы пожарной безопасности -Т.: ТГТУ, 2015.
5. Сулейманов А.А., Петровска Л.И., Шомансуров С.С. Учебнометодическое пособие к выполнению практических работ по курсу «Основы пожарной безопасности»– Т.:, ТГТУ, 2017- 60 с.
6. G‘ulomova G.M. Yong‘in va yonish-portlash xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. T.: Tafakkur tomchilari, 2021-246 b.